



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAIT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJIRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIVATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	371
Sadikova Shohida Obidqul qizi	



BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Sadikova Shohida Obidqul qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sadikovashohida16@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bozor konyunkturasida va raqobat sharoitida piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslanadi. Hudud bozor talabiga mos nav va gibridlarni tanlash, ekish zichligi va agroteknik usullarni optimallashtirish, hosilni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, resurs tejamkor va bozor talabiga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash piyoz hosildorligini oshirish, tannarxni pasaytirish hamda fermer xo'jaliklari daromadini ko'paytirishga imkon beradi. Taklif etilgan chora-tadbirlar hudud sharoitida piyoz yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, bozorni barqaror va sifatli mahsulot bilan ta'minlash hamda import o'rnini bosishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bozor konyunkturasida, piyoz yetishtirish, samaradorlik, resurs tejamkor texnologiyalar, subsidiya, fermer xo'jaligi, ishlab chiqaruvchilar, urug' materiallari.

Abstract. The article provides a scientific and practical justification of the key directions for improving the efficiency of onion production under market conditions and competitive environments. It examines the selection of varieties and hybrids that meet regional market demand, optimization of planting density and agrotechnical practices, as well as the creation of added value through the development of storage and processing infrastructure. The research results show that the application of resource-saving and market-oriented technologies makes it possible to increase onion yields, reduce production costs, and enhance the income of farming enterprises. The proposed measures contribute to improving the economic efficiency of onion production under regional conditions, ensuring a stable supply of high-quality products to the market, and supporting import substitution.

Key words: market conditions, onion production, efficiency, resource-saving technologies, subsidies, farm enterprises, producers, seed materials.

Аннотация. В статье научно и практико-ориентированно обоснованы направления повышения эффективности выращивания лука в условиях рыночной конъюнктуры и конкурентной среды. Рассматриваются вопросы подбора сортов и гибридов, соответствующих региональному рыночному спросу, оптимизации плотности посева и агротехнических приемов, а также создания добавленной стоимости за счет развития инфраструктуры хранения и переработки продукции. По результатам исследования установлено, что применение ресурсосберегающих и ориентированных на рынок технологий позволяет повысить урожайность лука, снизить себестоимость и увеличить доходы фермерских хозяйств. Предложенные меры способствуют повышению экономической эффективности производства лука в региональных условиях, устойчивому обеспечению рынка качественной продукцией и замещению импорта.

Ключевые слова: рыночная конъюнктура, выращивание лука, эффективность, ресурсосберегающие технологии, субсидии, фермерское хозяйство, производители, семенной материал.

KIRISH

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozor konyunkturasiga mos ravishda yetishtirish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ayniqsa sabzavotchilik tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni talab etadi. Shu jihatdan piyoz yetishtirish qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u keng iste'mol qilinishi, uzoq muddat saqlanishi hamda qayta ishlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Bozor konyunkturasida talablarining tezkor o'zgarib borishi piyoz yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.



Talab va taklif nisbatini to'g'ri baholashga yetarli e'tibor qaratilmaganda ishlab chiqarishni tashkil etishda ayrim nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy samaradorlikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, piyoz yetishtirish jarayonida bozor talablariga moslashuvchan yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Piyoz yetishtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda asosan yuqori hosildorlikka ega hamda turli iqlim sharoitlariga moslashgan navlarni yaratish, agrotexnik jarayonlarni ilmiy asosda optimallashtirish, shuningdek, kasalliklar va zararkunandalarga chidamlilikni oshirishga qaratilgan agrotexnologik yo'nalishlarda izchil davom ettirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar A. Raza [1], A. Paolo [2], G.K. Kantariya [3], B.T. Xayle [4] hamda A.R. Manirix [5] kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

A. Marshall [6] va P. Samuelson [7] asarlarida bozor konyunkturasi talab va taklif o'rtasidagi nisbat, narxlar mexanizmi hamda bozor muvozanatining muayyan davrdagi holati sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvlarda bozor konyunkturasi bozorning umumiy iqtisodiy muhitini tavsiflovchi va barcha tarmoqlar uchun xos bo'lgan nazariy kategoriya sifatida qoraladi.

M. Qodirov [8] bozor konyunkturasini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida yuz beradigan mavsumiy o'zgarishlar, narxlar dinamikasi hamda mahsulot taklifi va iste'mol talabi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik natijasida shakllanadigan murakkab iqtisodiy muhit sifatida izohlaydi.

Ouden M. ta'kidlashicha, kooperatsiya bir qator ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi [9]. Bu, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlash hamda qishloq aholisi turmush sifatini yaxshilashda namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bozor konyunkturasiga mos ravishda piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullari o'zaro uyg'unlashtirildi.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Piyoz yetishtirish samaradorligini aniqlashda hosildorlik darajasi, ishlab chiqarish tannarxi, sof daromad va rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Shuningdek, agrotexnik tadbirlarning (nav tanlash, ekish muddati, sug'orish va o'g'itlash tizimi) samaradorlikka ta'siri baholandi.

Amaliy qismda fermer xo'jaliklari faoliyati bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar hamda kuzatuv natijalari tahlil qilinib, bozor talablariga mos ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatlari o'rganildi. Olingan natijalar asosida piyoz yetishtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish va institutsional jihatdan takomillashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-dekabrda 711-sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga subsidiyalar ajratish jarayonlarini elektron shaklda boshqarish mexanizmi joriy etildi.

Mazkur qaror asosida agrosubsidiya.uz elektron platformasi ishga tushirilib, qishloq xo'jaligi subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 22 turdagi subsidiya mexanizmlari amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu platforma orqali subsidiyalarni ajratish va monitoring qilish jarayonlarining raqamlashtirilishi bir qator muhim vazifalarni samarali hal etishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, subsidiya olish bo'yicha murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlari yagona standartlar asosida tashkil etilib, inson omili ta'siri sezilarli darajada qisqartirildi. Shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning manzilliligi ta'minlanib, davlat mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Bundan tashqari, barcha bosqichlarning raqamli kuzatuv tizimi orqali shaffoflik va hisobdorlik darajasi institutsional jihatdan mustahkamlandi.

Shu bilan birga, agrosubsidiya.uz platformasi doirasida subsidiyalarni raqamlashtirish davlat qo'llab-quvvatlash siyosatida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) elementlarini kuchaytirish imkonini beradi. Xususan, subsidiya turlari, hududlar kesimidagi talab dinamikasi, benefisiarlarning toifaviy tarkibi hamda ajratilgan mablag'lar natijadorligi kabi ko'rsatkichlarni tizimli kuzatish va tahlil qilish orqali qishloq xo'jaligi siyosati instrumentlarini dalillarga asoslangan holda takomillashtirish uchun zarur empirik baza



shakllanadi. Bunday yondashuv davlat moliyaviy intervensiyalarining ta'sirchanligi va natijadorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Demak, agrosubsidiya.uz platformasi orqali subsidiya mexanizmlarining joriy etilishi va ularni raqamli boshqarish amaliyoti davlat qo'llab-quvvatlash tizimining institutsional jihatdan yangilanayotganini ko'rsatadi. Bunda tartib-taomillarning unifikatsiyalanishi, nazorat va monitoringning kuchayishi, shaffoflik hamda manzillilik tamoyillarining amaliyotda mustahkamlanishi ta'minlanmoqda. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash siyosatida resurslardan foydalanish samaradorligi va taqsimotning adolatligini ta'minlash uchun zarur institutsional asoslar shakllanmoqda.

Piyoz yetishtirish samaradorligini oshirishda moliyalashtirish hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy kuzatuvlar piyozchilikda fermer xo'jaliklarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji, ayniqsa mavsumiy davrlarda, nisbatan yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bois imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, lizing mexanizmlari hamda davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish moliyaviy cheklovlarni yumshatishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish bir qator asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular 1-rasmda tizimli tarzda aks ettirilgan.



1-rasm. Piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda piyoz yetishtirishni rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish hamda mahsulot assortimenti va turlarini kengaytirish;
- piyoz yetishtirish va qayta ishlash jarayonlariga investitsiyalarni jalb etish;
- piyoz yetishtirishda yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash;
- intensiv va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- urug'lik materiallari va mineral o'g'itlar bilan ta'minlashni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

- piyoz eksporti geografiasini kengaytirish va tashqi bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish va boshqalar.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahsulot yetishtiruvchi xo'jaliklarning tarqoqligi, mahsulotlarni sotish uchun barqaror savdo kanallarining yetarli darajada shakllanmaganligi, shahar oziq-ovqat bozorlariga kirishda uchraydigan ayrim tashkiliy masalalar, shuningdek, mahsulotlarni sotish va eksportdan olinadigan asosiy daromadning ko'proq vositachilar qo'lga o'tishi holatlari kuzatilmoqda. Natijada piyoz yetishtiruvchilarning



iqtisodiy manfaatdorligi ma'lum darajada pasayib, iste'molchilar uchun mahsulot narxining oshishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bahorgi mavsumda esa piyozga bo'lgan talab uning taklifidan yuqori bo'lib, bozor muvozanatida nomutanosiblik yuzaga keladi. Aholining piyozga bo'lgan talabini barqaror qondirish uchun mahsulotni saqlash muddatlarini uzaytirish zarurati vujudga kelmoqda.

Mazkur vaziyatni yumshatish maqsadida, bizning fikrimizcha, piyozni bozorga chiqarish va sotishni ta'minlovchi kooperativlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda piyoz yetishtiruvchilarning kooperatsiyasi tovar ishlab chiqaruvchilarning birgalikdagi xo'jalik faoliyati shakli sifatida individual faoliyatga nisbatan yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Kooperativ harakati o'zining rivojlanish jarayonida uzoq tarixiy bosqichni bosib o'tgan bo'lib, bugungi kunda dunyoda kooperativlarning 120 dan ortiq turi va ko'rinishlari mavjud, ularning a'zolari soni esa 800 milliondan ortiqni tashkil etadi [10]. Kooperatsion aloqalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar sirasiga bozor munosabatlarining rivojlanishi, kooperativlarga ehtiyoj sezuvchi aholi qatlamlarining shakllanishi, kooperativlarning ijtimoiy bazasini mustahkamlash, aholining mablag' jamg'arish imkoniyatlarining kengayishi hamda kredit-bank tizimining rivojlanishi kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq, kooperativ qishloq xo'jaligi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga ega [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi kooperativining tadbirkorlik elementlarini o'zida mujassam etgan notijorat tashkilot sifatidagi yangi maqomini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur yondashuv kooperativlarning iqtisodiy faoliyat doirasini kengaytirish bilan birga, qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi tushunchasiga nisbatan mavjud ikkiyoqlama talqinlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asosanib, piyoz yetishtirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Bozor konyunkturasini muntazam monitoring qilish va talab yuqori bo'lgan mavsumlarga mos ekish rejalashtirish tizimini joriy etish;
2. Yuqori hosildor, kasalliklar va zararkunandalarga chidamli navlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
3. Agroteknik tadbirlarni ilmiy asosda optimallashtirish, jumladan suv va o'g'it resurslaridan tejamkor foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish;
4. Saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali mavsumiy narx tebranishlarining salbiy ta'sirini kamaytirish;
5. Davlat subsidiyalari va raqamli qo'llab-quvvatlash platformalaridan, xususan agrosubsidiya.uz tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda fermerlarning raqamli savodxonligini kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi piyoz yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bozor talablariga mos raqobatbardosh mahsulot yetishtirish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Agnolucci P. et al. (2020). Impacts of rising temperatures and farm management practices on global yields of 18 crops. *Nature Food*, 1(9), 562–571. <https://doi.org/10.1038/s43016-020-00133-9>
2. Ouden M. et al. (1996). Vertical cooperation in agricultural production–marketing chains, with special reference to product differentiation in pork. *Agribusiness: An International Journal*, 12(3), 277–290.
3. Haile B.T. (2015). Determinants of technical, allocative and economic efficiencies among onion-producing farmers in irrigated agriculture: Empirical evidence from Kobo District, Amhara Region, Ethiopia. *African Journal of Agricultural Research*, 10(20), 2180–2189.
4. Kantariya G.K. et al. (2018). Resource use efficiency and economics of onion cultivation in Bhavnagar District of Gujarat. *Journal of Pharmacognosy and Phytochemistry*, 7(5), 1333–1338.
5. Manirho A., Musabanganji E. & Lebaillly P. (2020). Analysis of economic efficiency of small-scale onion production in Volcanic Highlands in Rwanda. *Montenegrin Journal of Economics*, 16(3).
6. Marshall A. (2008). *Principles of economics* (Textbook). Ekonomika.
7. Raza A. et al. (2025). Novel strategies for designing climate-smart crops to ensure sustainable agriculture and future food security. *Journal of Sustainable Agriculture and Environment*, 4(2), e70048. <https://doi.org/10.1002/sae2.70048>
8. Samuelson P.A. & Nordhaus W.D. (2020). *Economics* (Textbook). Williams.
9. Vakhitov, K. I. (2010). *History of consumer cooperation in Russia* (Textbook).
10. Xodirov M.M. (2019). *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti* (Textbook). Fan va texnologiya.
11. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 8-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida" O'RQ-995-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/7211302>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
